




25-dars. GRAFIK MUHARRIRLARIDA FOTO VA RASMLARNI QAYTA ISHLASH


Mavzuni o'zlashtirish jarayonida .jpg va boshqa formatlardagi rasmlarni yuklab, ularni turli effektlarda aks ettirish, fon (rasm)ga matn hamda rasm joylashtirish ko'nikmalarini hosil qilamiz. **Paint.Net** dasturi menyusining **Эффекты** bo'limini tanlaymiz va uning imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz. Ko'rib turganingizdek, oynachada ochilgan rasmni turli usullar bilan o'zgartirib, undan boshqa rasm hosil qilish mumkin.

1-mashq. Paint.Net dasturini ishga tushiring. **Файл → Открыть → Обзор** ko'rsatmalarini bajarib, biror rasmni yuklang va uni 500×400 o'lchamga keltiring. So'ngra **Меню → Файл → Эффекты** bo'limiga kirib, effektlardan istalgan birini tanlang. Masalan:



2-mashq. Tabriknoma yaratish.

1. Rasm tanlab olingandan so'ng, rasm ustida sichqonchanning chap tugmachasi bosiladi va kontekst menyudan "Открыть с помощью Paint.Net" ko'rsatmasi bajariladi.
2. Dasturdan chiqmasdan, ikkinchi rasmni yuklab olamiz.




3. Endi rasmning orqa fonini o'zgartiramiz. Buning uchun uskunalar panelidan  "Sehrli tayoqcha" tanlanadi va rasmning fon qismi ajratib olinadi. Ajratilgan qismni **DEL** tugmachasi yordamida o'chiramiz yoki menyuning **"Edit (Правка)" - "Erase Selection (Очистить выделенное)"** ko'rsatmasi orqali o'chiramiz.

(Shaxmat shaklida hosil bo'lgan fon uning shaffofligini ko'rsatadi). Endi ish maydonida faqat shaklning o'zi qoladi va undan nusxa ko'chirib olamiz. Nusxa olingan rasmni endi istalgan qatlamga qo'yish mumkin.

4. Yangi qatlam yaratamiz va unga rasm nusxasini joylashtiramiz. Rasm belgilangan holatida uni kichraytiramiz va qulay qismiga joylashtiramiz.

5. Hosil bo'lgan yangi rasmga T uskunasi yordamida "Tabriklaymiz!" so'zini kiritamiz va **GIF** formatida saqlab qo'yamiz. Chunki bu formatda rasm shaffofligi yaxshi saqlanib qoladi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



- 1. Paint.Net dasturida rasm saqlashning qanday usullarini bilasiz?
- 2. Rasmni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz?
- 3. Rasm effektlarini o'zgartirish uchun qaysi ko'rsatmadan foydalanasiz?
- 4. Rasmni fondan ajratish uchun qanday amallar bajarasiz?
- 5. Belgilangan sohani qanday olib tashlash mumkin?
- 6. "Alifboni o'rgataman" mavzusida kichik yoshdagi o'quvchilar uchun harflarni o'rgatuvchi kartochkalar yarating.

UYGA VAZIFA



- 1. Paint.Net dasturining Эффе́кты (tuslanish) bo'limidan nima maqsadda foydalaniladi?
- 2. Sohani belgilash uchun qanday uskunadan foydalaniladi?
- 3. CTRL + D tugmachalar amalini izohlang.
- 4. ✨ Sehrli tayoqcha vazifasini tushuntiring.